

**INSON VA KOINOT: “GALLAKTIKADA BIR KUN: KOINOT XARITASI”
ASARIDA KO‘TARILGAN MAVZULAR****M.I.Tursunova**Namangan davlat chet tillari instituti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, PhD**Khamidjonova Diyora Odiljon qizi**

NamDChTI 2-kurs magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqola Sa’dulla Quronovning “Gallaktikada bir kun” asarini tahlil qiladi va uning asosiy mavzularini yoritadi. Asarda inson ulug‘vorligi, shaxsning o‘z salohiyatini anglashi, ekologik muammolar va tabiatni asrash zarurati, shuningdek milliy va sharqona qadriyatlar singari mavzular ko‘tarilgan. Maqolada asarning bolalar va kattalar uchun ma’naviy va intellektual ahamiyati, ilmiy-fantastik elementlar orqali o‘quvchida qiziqish uyg‘otishi va madaniy merosni qadrlashga xizmat qilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola o‘quvchiga yetkaziladigan ijtimoiy, madaniy va ekologik xabarlar, shuningdek, asarning yosh avlodni tarbiyalashdagi roli haqida umumiy xulosalarni beradi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-fantastika, inson ulug‘ligi, ekologik muammolar, tabiat va inson, ilmiy-fantastik elementlar

Anotation: This article analyzes Sa’dulla Quronov’s “A Day in the Galaxy” and highlights its main themes. The work addresses human greatness, the realization of individual potential, ecological issues, the necessity of environmental preservation, as well as national and Eastern values. The article examines the literary work’s intellectual and moral significance for both children and adults, its capacity to stimulate curiosity through science fiction elements, and its role in fostering appreciation of cultural heritage. Additionally, the study outlines the social, cultural, and ecological messages conveyed to readers, as well as the work’s role in educating the younger generation.

Key words: science fiction, human greatness, ecological issues, nature and human, science fiction elements

Аннотация: В данной статье анализируется произведение Са’дуллы Куронова «Один день в Галактике» и выделяются его основные темы. В произведении рассматриваются величие человека, осознание личного потенциала, экологические проблемы и необходимость охраны окружающей среды, а также национальные и восточные ценности. Статья исследует интеллектуальное и моральное значение произведения для детей и взрослых, его способность пробуждать интерес через элементы научной фантастики и роль в формировании уважения к культурному наследию. Кроме того, в статье подчеркиваются социальные, культурные и экологические послания, передаваемые читателю, а также роль произведения в воспитании подрастающего поколения.

Ключевые слова: научная фантастика, величие человека, экологические проблемы, природа и человек, элементы научной фантастики

KIRISH

Adabiyot o'quvchiga nafaqat estetik zavq bag'ishlash, balki insoniy, madaniy va milliy qadriyatlarni yetkazish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Sa'dulla Quronovning "Gallaktikada bir kun" asari o'zbek adabiyotida o'z o'rnini bilan ajralib turadi. Asar bir tomondan yosh avlod uchun qiziqarli va sodda qissa shaklida yozilgan bo'lsa, boshqa tomondan undagi mavzular kattalar uchun ham intellektual va ma'naviy jihatdan foydalidir.

Asar bir necha asosiy mavzularni o'zida mujassam etadi: inson ulug'vorligi va shaxsning o'z salohiyatini anglash, ekologik muammolar va tabiatni asrash zarurati, shuningdek milliy va sharqona qadriyatlar. Shu jihatlar orqali o'quvchi o'zining insoniy fazilatlarini anglaydi, atrof-muhitga va jamiyatga bo'lgan ma'suliyatni his qiladi, hamda madaniy merosni qadrlashga chorlanadi.

Bundan tashqari, asar ilmiy-fantastik yo'nalishdagi elementlarni ham o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchining tasavvurini kengaytiradi va bilim olishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi. Shu tariqa, "Gallaktikada bir kun" nafaqat bolalar adabiyoti durdonasi, balki ma'naviy va intellektual rivojlanish vositasi sifatida ham ahamiyatga ega.

Asarning asosiy mavzulari: Asarda juda ko'p mavzular muhokama qilingan, va uning eng maqtovg'a loyiq jihatlaridan biri shuki, asarda milliylik va sharqona qadriyatlar madh etilgan. Bundan tashqari, asar o'quvchiga estetik zavq berish bilan birga, ilmiy tushunchalar, atamalar va qoidalarni sodda va qiziqarli tarzda tushuntiradi. Shuningdek, asarda Nyutonning boshiga olma tushishi yoki Mona Liza suratining o'g'irlanishi kabi mashhur voqealar ham qiziqarli ravishda hikoya qilinadi.

Asarni o'quvchiga sevimli qiladigan asosiy sabablaridan biri — kitobda ko'tarilgan dolzarb mavzular, jumladan insonning ulug'vorligi, ekologik muammolar va insoniy tuyg'ularning tasviri. Bundan tashqari, asarda milliy va sharqona qadriyatlarni namoyon etuvchi sahnalar ham mavjud. Misol uchun, asarning ilk boblarida bolakay oila davrasida erta tongda nonushta qilish uchun qo'shib o'tirishi sahnasi o'zbek madaniyatiga xos manzarani namoyon etadi.

"Bolakay yuz-qo'lini yuvib oshxonaga chiqqanida, dadasi va oyisi nonushta qilib o'tirishardi. Ahmad ularga salom berib, dasturxonga yaqin o'tirdi" [1]
Bunday sahnalar yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda katta yordam beradi.

Koinot mo'jizalariga sharqona munosabat: Odatda, o'zga sayyoraliklar haqidagi adabiyotlarda ularni ko'pincha insoniyatga tahdid soluvchi dushman sifatida tasvirlashadi. Bu qarash ko'plab olimlar tomonidan insonning o'zi bilmagan narsalaridan qo'rqishi yoki ehtiyotkorligi bilan izohlanadi. Masalan, Herbert Wellsning "The War of the Worlds" asarida marsliklar juda intellektual va insoniyatni yo'q qilishga qodir mavjudotlar sifatida tasvirlangan.

Shuningdek, kino va boshqa ommabop media shakllarida ham o'zga sayyoraliklar ko'pincha muloqot qilib bo'lmaydigan, xavfli mavjudotlar sifatida ko'rsatiladi.

Biroq Sa'dulla Quronovning "Gallaktikada bir kun" asarida bu yondashuv tubdan o'zgartirilgan. Asar birinchi navbatda bolalar uchun yozilganligi sababli, unda olis sayyoraliklar bilan do'stona va mehribon munosabat mavjud. Har bir

tashrif buyurgan sayyorada sayyoraliklar doimo yordamga tayyor, mehmondo'st va halol mavjudotlar sifatida tasvirlanadi. Masalan, qahramon Ahmad Moki asirga tushib qolganida, unga robotga emas, do'stga munosabat qilgandek munosabat qiladi. Bu sahna qadimdan xalqimizda do'stlik va mehr-muhabbatni ulug'lash odatini aks ettiradi.

Shuningdek, Ahmad va Morgon Zagun sayyorasiga tashrif buyurganlarida, zaglar ularni kutib olish jarayonida sharqqa xos mehmondo'stlik va hurmat ko'rsatish odatlarini namoyon qiladilar. Ushbu sahna quyidagi misol bilan ifodalanishi mumkin: "U bizning qahramonlarni juda iliq kutib oldi. Ayniqsa, Ahmadga alohida izzat-ikrom ko'rsatdi." [1]

Asarda shuningdek, qomondon Dordonni qutqarganlaridan so'ng qomondonning aytgan so'zlari ham xalqimizning yaxshilikka doimo yaxshilik bilan javob berish qadriyatini aks ettiradi:

"Sizlar mening xalqimga juda katta yordam berdingiz. Garchi shartga ko'ra faqat xarita bo'lagini berishimiz kerak bo'lsa ham, men buni kam deb hisoblayman. Shuning uchun qachondir bizdan biror yordam kerak bo'lsa, tortinmay so'rang. Miks qo'shini yordamga tayyor!" [1]

Asarda yozuvchi xalqimizning necha yillardan beri saqlab kelayotgan, qadrlab, avloddan avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlar haqida yozadi, va bu hech qaysi o'quvchining nazaridan chetda qolmaydi.

Inson ulug'ligi: Kitobni o'qish jarayonida e'tibor bergan eng muhim jihatim — asarning inson ulug'vorligini nechog'lik yoritib bera olganidadir. Ayniqsa, koinot xaritasining yo'qolgan bir bo'lagi insonning bosh barmog'iga yashirilganligi g'oyasi kitobni o'qiyotgan nafaqat yosh avlodni, balki kattalarni ham beixtiyor to'xtab, o'z bosh barmoqlariga boqishga undaydi. Bu esa asarning eng ta'sirli va mukammal yakunlaridan biri bo'lib, o'quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi.

"Bu vaqtda Ahmad o'zining barmoq izlariga sinchiklab qarash bilan band edi. U oldin ham bu izlarga ko'p qaragan, lekin o'sha kezlarda bu sirli izlar zamirida galaktika xaritasi yashiringan ekani xayolining bir chekkasiga ham kelmagandi. Ammo bugun u barmog'idagi maxfiy kodlarning sirini anglab yetdi. Shu mo'jaz barmoqlarida galaktikaning bir bo'lagini olib yurganidan faxrlana boshladi. Ozining naqadar kerakli va muhim inson ekanini his qildi" [1]

Bunday jumlar va bunday yakun nafaqat yosh avlodning, balki kattalarning ham o'zlarini naqadar buyuk va zarur inson sifatida his etishlariga yordam beradi. Koinotning bir parchasini o'zida mujassam deb his qilgan har bir insonda yashashga, buyuk ishlarni amalga oshirishga hamda o'z salohiyatini namoyon etishga bo'lgan ishtiyoq yanada ortadi.

Ekologik muammolar:

Ilmiy-fantastik yo'nalishda yozilgan asarlarning ko'pchiligi ekologik muommolarni yoritib beradi; asarlarda kelajak tasvirlanganligi uchun, ko'p holatlarda keljkdagi vaziyatlar tabiatning vayron bo'lganligini, yoki odamlarning koinotdan, yoki boshqa sayyorlardan hayot qidirayotganligini namoyon etadi.

Ushbu kitobda ham garchi Yer sayyorasidagi hayot va tabiat yomon holatda tasvirlanmagan bo'lsada, biroq boshqa sayyorlarga sayohat qilgan Ahmad va uning

do'stlari "Koinot muzeyi" ga borishganda, oddiygina tabiiy taomlarning yetishmasligi, qanchlar qimmat va qadrlil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Va aynan shu sahnada yozuvchi o'quvchilarga "Agar shu holatda davom etadigan bo'lsak, bizni ham shunday kelajak kutayapti" deganday xabar yo'llashi mumkin.

"Axir, ushoqday keladigan turshak bo'lagini og'ziga solib "oh-ohlab" turgan bu maxluqqa achinmay bo'larkanmi? Nahotki, tabiiy taomlar shunchalik taqchil bo'lsa?! "Hali bu sayyorada va galaktikada shu ushoqdek keladigan tabiiy mevani ham yemaganlar ko'p bo'lsa kerak? o'yladi Ahmad. Bu o'zga sayyoraliklar ilm-fanda taraqqiy topishga topibdi-yu, lekin evaziga ko'p narsani boy berishibdi. Salmirliklar, marsliklar, gikslar ularning bari taraqqiyotning qurboni bo'lishmadimi? Ular fan va texnikani rivojlantirib, oqibatda o'z sayyorasining, ona tabiatining kushandasiga aylanib qolishmadimi? Xo'sh, biz, odamlar-chi, borgan sari shu o'zga sayyoraliklarga o'xshab qolmayapmizmi? O'rmonlarni kesib, suvni, havoni bulg'ab nimaga erishamiz?! Oqibati shunday tugamasmikan?!" [1]

XULOSA

Sa'dulla Quronovning "Gallaktikada bir kun" asari nafaqat yosh avlod, balki kattalar uchun ham ma'naviy, intellektual va estetik ahamiyatga ega bo'lgan adabiy asardir. Asar orqali o'quvchi inson ulug'vorligini anglash, o'z salohiyatini qadrlash, ekologik muammolarni tushunish va tabiatni asrash zaruriyatini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, asarda milliy va sharqona qadriyatlarni, xalqimiz urf-odatlarini va mehmondo'stlik an'analarini yosh avlodga yetkazish jarayoni ham muhim o'rin tutadi.

Ilmiy-fantastik elementlar yordamida yozuvchi o'quvchining tasavvurini kengaytiradi, bilimga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi va koinot bilan bog'liq mavzularni qiziqarli shaklda taqdim etadi. Shu tariqa, asar o'quvchini nafaqat o'zining ichki dunyosini, balki atrof-muhit va jamiyatga bo'lgan mas'uliyatini ham anglashga chorlaydi.

Natijada, "Gallaktikada bir kun" asari o'quvchiga insoniy fazilatlarni qadrlash, madaniy merosni hurmat qilish va ekologik ongini rivojlantirishga yordam beruvchi ta'limiy va tarbiyaviy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Asar nafaqat o'qish zavqi bag'ishlaydi, balki yosh avlodni ma'naviy va intellektual jihatdan shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- [1] Sa'dullo Quronov, Gallaktikada bir kun: Koinot xaritasi (Toshkent: Akademnashr, 2024)
- [2] Qozoqboy Yo'ldoshev, "Gallaktikada bir kun" haqida (Qur'onov.uz, 2022)
- [3] Dilnavoz Najimova, "Koinot javohiri" ilmiy-fantastik qissasi haqida (Qur'onov.uz, 2022)
- [4] Baxtiyor Sheraliyev, "Gallaktikada bir kun" ni bir kechada o'qidim (Qur'onov.uz, 2022)
- [5] Mirsanova Moxira, "Gallaktikada bir kun" asarida ilmiylikning badiiy talqini (Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2025)